

## **O'ZBEKISTONDA SO'NGGI YILLARDA AMALGA OSHIRILGAN PENSIYA TA'MINOTI TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR**

*Majidova Mohinur Ulash qizi*

*O'zbekiston Respublikasi Bank - Moliya akademiyasi magestiri*

[mohinurxonmajidova@gmail.com](mailto:mohinurxonmajidova@gmail.com)

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada mamlakatimizda pensiya ta'minoti tizimining amaldagi holati va uni takomillashtirish yo'llari va pensiya ta'minoti tizimidagi so'nggi yillardagi o'zgarishlar O'zbekiston pensiya ta'minotining o'ziga xos xususiyatlari va takomillashtirish yo'llari yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** pensiya tizimi, nafaqat, avlodlar birdamligi, yoshga doir pensiya, boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi, nogironlik pensiyasi, pensionerlar, majburiy va ixtiyoriy pensiya tizimi, iqtisodiy bog'liqlik.*

Fuqarolarning pensiya ta'minoti bilan bog'liq bir qancha muammolar bor ularga yechim izlab topish zarurdir. Hamma fuqarolarning qariganda yoki mehnat layoqatini yo'qotganda o'zlarining birlamchi xarajatlarini qoplay bilishi hamda sohadagi kamchiliklarni bartaraf qilish, aholi faravonligini yaxshilash uchun pensiya tizimimizda bir qancha o'zgarishlarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Jahon pensiya ta'minoti ijtimoiy muhofazasining ajralmas qismi hisoblanib davlatning ajralmas funksiyalaridan biri hisoblanadi. Davlatning tuzulishi va imkoniyatlariga muvofiq holda fuqarolarning ijtimoiy ta'minotiga bo'lgan huquqlari birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambiliyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan "inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 22-moddasida qayd etib o'tilgan. Unga ko'ra pensiya ta'minoti – muayyan davlat qonunchiligida o'rnatilgan tartibta asosiy daromad manbasini qariyalik, nogironlik va boquvchisini yo'qotgan fuqarolarni moddiy ta'minlashga yo'naltirilgan huquqiy va iqtisodiy chora-tadbirlar majmuasidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiiq etiloyatgan 2022 – 2026 – yillarda amalga oshirilishi qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60 son asosiy maqsadi."Inson qadri uchun" degan ustuvor tamoyilga asoslangan "Harakatlar strategyasi – Taraqqiyot strategyasi sari" tamoyili asosidagi Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategyasida amalga oshirishga oid davlat tarraqqiyot strategyasi IV bobning 53 va 54 – maqsadlari aynan pensiya ta'minoti tizimini yanada rivojlantirishga qaratilgan vazifalarni o'z ichiga oladi. Ushbu islohotlar orqali munosib turmush tarzi yaratishga qaratilgan.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatda amal qilayotgan davlat pensiya tizimini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish va jang'arib boriladigan pensiya tizimini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Pensiya jang'armasining ijtimoiy institut sifatidagi faoliyatidan kelib chiqqan holda, bosh masala, byudjetdan tashqari pensiya jang'armasi tomonidan pensiyaga chiqqan barcha fuqarolarning moddiy ta'minotini barqaror mexanizmini yaratish vazifasi to'liq hal etilmayotganligidir.

**Pensiya ta'minoti tizimining funktsiyalari** Makroiqtisodiy funksiyasi – milliy iqtisodiyot va jamiyatda ijtimoiy va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash. Siyosiy funksiyasi – aholi qatlamlari orasida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash. Iqtisodiy funksiyasi – ishlayotganlar va mexnatga layoqatsizlar, yosh va keksa avlodlar, ko'p va kam daromadli aholi qatlamlari o'rtasidagi qarama – qarshiliklarni bartaraf qilish. O'zbekistonda fuqarolarga pensiya ta'yinlashda yangi elektron shakldagi tizim yo'lga qo'yildi. Bu bo'yicha "fuqarolarga davlat pensiya tayinlash jarayonini soddalashtirish hamda pensiya va nafaqalarni fuqarolarga yetkazish tizimini takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qaror loyihasi e'lon qilindi. Joriy qilingan qarorga binoan, 2022-yil 1-apreldan boshlab pensiyalarni hisoblashga fuqarolarning "Yagona mehnat milliy tizimi" idoralaro dasturiy-apparat kompliksi (keyingi o'rinlarda – YAMMT IDAK) ga kiritilgan mehnat staji, oliy o'quv yurtlaridagi kunduzgi ta'lim va harbiy xizmat davri to'g'risidagi elektron ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.

Bir yilda bir marta 270 ming so'm to'lagan fuqaro kelajakda bir yil band bo'lgan hisoblanib, shu yil ish stajiga o'tadi. Ko'pchilik bir yillik staj hisoblanishi uchun to'lanadigan 270 ming so'mni har oy to'lash kerak deb tushunadi. Yo'q unday emas bir yilda bir marta to'lansa bir yillik stajga o'tadi deydi" – Gulnora Murodova. Avgust oyida O'zbekistonda pensiya va nafaqa oluvchilar soni 4 millionga yaqinlashgani ma'lum qilindi. Pensiya va nafaqa oluvchilar soni yiliga 200-250 ming nafarga o'sib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasi Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa xollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega.

Prezident farmoni bilan 1- dekabr ish haqi, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar miqdori 7 % oshirildi. Shuningdek bazaviy hisoblash miqdori (BHM) 340 ming so'm etib belgilanmoqda. Prezidentning 17-noyabrdagi "Ish haqi pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi farmoni bilan 1-dekabrda ularning miqdori 7 foizga oshirildi.

Xususan pensiyani hisoblashning bazaviy miqdori 372 ming so'm, yoshga doir eng kam pensiya miqdori – 725 ming so'm, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori – 1 mln 50 ming so'm etib belgilanmoqda.

Shuningdek, bazaviy hisoblash miqdori (BHM) 1-dekabrda 3 foiz miqdorda (7 foiz emas) o'zgarib, 340 ming so'm etib belgilanmoqda. Ma'lumot uchun, yil davomida ish haqi, pensiya va ijtimoiy nafaqalar jami 14,5 foizga oshgan bo'lsa bazaviy hisoblash miqdori esa bundan kamroq, ya'ni 13 foizni tashkil etgan.

8-may kuni prezident SHavkat Mirziyoyev referendum yakunlariga bag'ishlangan uchrashuvda ish haqi, pensiya, nafaqalar va stepindiyalar miqdori muntazam oshirib borilishini ta'kidlagandi. Buning uchun budjetdan har yili qo'shimcha 30-40 trln so'm ajratish kerak bo'ladi.

2024 yilda davlat budjetining ish haqi, pensiyalar, stepindiya va nafaqalar miqdorini va ayrim xizmatlarning tariflarini oshirish bilan bog'liq xarajatlar 9,6 trln so'm tashkil etadi. Umumiy hisobda ish haqi, pensiya va stepiniyalarga davlat budjeti xarajatlarning yarmidan ko'pi yo'naltiriladi.

Xalqaro ijtimoiy ta'minot asotsatsiyasi Bosh Assambliyasi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkilotiga a'zo bo'lish uchun bergan arizasini tasdiqladi. Aholini ijtimoiy himoya qilish sohasida yagona siyosatni amalga oshirish bo'yicha yetakchi tashkilotdir. U o'z safida 160 mamlakatdan 320 ga yaqin milliy ijtimoiy ta'minot institutlarini birlashtiradi.

Shuningdek, Xalqaro ijtimoiy ta'minot asotsatsiyasining ijtimoiy sohada mukammallik sertifikatini olish uchun xaqaro ko'rsatma va yaxshi amaliyot yechimlarini o'rganish tashkilotning asosiy qadriyatlariga kiritilgan.